



## KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLAR VA MAJBURIYATLAR

Nazarov G'anisher Bahodirovich

Sirdaryo viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Yangiyer shaharlararo qo'riqlash bo'limi otryad komandiri o'rinnbosari, katta leytenant telefon: +998934017377 ganishernazarov700@gmail.com

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari (so'z erkinligi, ta'lif olish, saylash va saylanish huquqi va boshqalar) soliqlarni to'lash, qonunlarga rioya qilish, harbiy xizmat, ayollar va bolalar huquqlarining konstitutsiyaviy himoyasi batafsil ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari, so'z erkinligi, ta'lif olish, saylash va saylanish, qonunlarga rioya qilish.

### КОНСТИТУЦИОННЫЕ ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ

**Назаров Ганишер Баходирович**

Управление безопасности Сырдарьинского района, Янгиер Интерсити заместитель начальника отдела охраны, старший лейтенант Телефон:  
+998934017377 ganishernazarov700@gmail.com

**Аннотация:** В Конституции Республики Узбекистан подробно рассматриваются основные права и свободы граждан (свобода слова, право на образование, право избирать и быть избранным и др.), уплата налогов, соблюдение законов, военная служба, конституционная защита прав женщин и детей.

**Ключевые слова:** основные права и свободы граждан, свобода слова, образование, избрание и избрание, соблюдение законов.

### CONSTITUTIONAL RIGHTS AND OBLIGATIONS

Nazarov Ganisher Bakhodirovich

Security Department of Syrdarya region, Yangier Intercity Deputy Head of the Security Department,  
Senior Lieutenant Phone: +998934017377 ganishernazarov700@gmail.com

**Abstract:** The Constitution of the Republic of Uzbekistan considers in detail the basic rights and freedoms of citizens (freedom of speech, the right to education, the right to vote and be elected, etc.), payment of taxes, observance of laws, military service, constitutional protection of the rights of women and children.

**Keywords:** fundamental rights and freedoms of citizens, freedom of speech, education, election and election, observance of laws.



Yangi o‘zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume ‘tirof etilgan norma va prinsiplarga qat ‘iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do ‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatadir.

SH.M.Mirziyoyev

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati inson qadri va inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozimligi bugungi kunning asosiy masalalaridan biridir. Bu jarayonlarda shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan sanaladi. [1]

Konstitutsiya – har bir davlatning asosiy huquqiy hujjati bo‘lib, uning tizimi va tuzilishi davlatni boshqarish, fuqarolarni himoya qilish hamda jamiyatning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan asosiy qonunlarni o‘z ichiga oladi.

Konstitutsiyaviy huquqlar – davlat tomonidan fuqarolarga kafolatlangan va himoya qilingan huquqlar bo‘lib, ular fuqarolarning erkinliklari, tengliklari va adolatli muomalada bo‘lishini ta’minlaydi.

Majburiyatlar – konstitutsiya va boshqa huquqiy hujjatlar tomonidan belgilangan fuqarolar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro vazifalar va mas’uliyatlardir.

Fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari davlatning asosiy huquqiy tizimi va demokratik tuzilmasining poydevorini tashkil etadi. Ushbu huquqlar fuqarolarni jamiyatda erkin va teng yashash imkoniyati bilan ta’minlaydi, shuningdek, ularning inson huquqlarini himoya qilishni maqsad qilgan. Har bir insonning huquqlari konstitutsiyada belgilangan bo‘lib, davlat bu huquqlarni himoya qilishga mas’uldir. Asosiy huquqlar va erkinliklar fuqarolarga nafaqat himoya qilish, balki jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. [2]

So‘z erkinligi, Fuqarolarga o‘z fikrini erkin ifoda etish, matbuot va boshqa axborot vositalarida fikr bildirish huquqi kafolatlanadi. So‘z erkinligi demokratiyaning muhim tarkibiy qismidir, chunki bu fuqarolarga hukumatning ishlarini tanqid qilish va ijtimoiy masalalarni ochiq muhokama qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, so‘z erkinligi boshqa fuqarolarning huquqlarini buzmasligi kerak. Fuqarolar haqorat, qo‘poruvchilik yoki xuddi shunday jinoyatlarni sodir etmaslik majburiyatiga ega.

Ta’lim olish huquqi, Har bir fuqaro, shu jumladan, bola va yoshlar, ta’lim olish huquqiga ega. Bu huquq davlat tomonidan ta’minlanishi zarur. Ta’lim olish faqat huquqiy nuqtai nazardan muhim emas, balki jamiyatning rivojlanishi, insonlarning intellektual va madaniy darajasini oshirishda ham ahamiyatlidir. Bepul boshlang‘ich va o‘rta ta’lim, shuningdek, oliy ta’limga erkin kirish, davlat tomonidan fuqarolar uchun kafolatlanad. [3]

Saylash va saylanish huquqi, Har bir fuqaro saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega. Bu, fuqarolarga o‘z vakillarini tanlash va siyosiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Saylanish huquqi, fuqarolarning siyosiy hayotda qatnashish va o‘zlari istagan davlat idoralari uchun saylanish imkoniyatini taqdim etadi. Saylash va saylanish huquqi demokratik jamiyatning asosiy printsiplaridan biridir, chunki u davlat hokimiyatining xalq tomonidan belgilanishini ta’minlaydi.

Xususiy mulk huquqi, Fuqarolarning xususiy mulk huquqi ham konstitutsiya tomonidan kafolatlanadi. Bu huquq fuqaroning o‘z mulkini erkin boshqarish, sotish, ijaraga berish, merosga qoldirish kabi amallarni bajarish imkoniyatini beradi. Mulkni davlat tomonidan noqonuniy musodara qilish faqat qonun asosida amalga oshirilishi mumkin.

Tenglik huquqi, Har bir fuqaro qonun oldida tengdir. Bu huquq diskriminatsiya, irqiy yoki diniy kamshitish, jinsiy, ijtimoiy holatga qarab fuqarolarni ajratishning oldini olishga xizmat qiladi. Tenglik huquqi har bir shaxsning o‘z imkoniyatlaridan teng foydalanishini ta‘minlaydi.

Shaxsiy daxlsizlik huquqi: Fuqarolar shaxsiy daxlsizlikka ega bo‘lib, hech kim qonunsiz ravishda ularning shaxsiy hayotiga aralashmasligi kerak. Bu huquq odamlarni bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazuvchi aralashuvlardan himoya qilishga qaratilgan.

Demokratik jamiyatning poydevori:

Fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari demokratik jamiyatda davlat hokimiyatining xalq tomonidan amalga oshirilishini ta‘minlaydi. Saylash huquqi, so‘z erkinligi, tenglik va boshqa asosiy huquqlar fuqarolarga o‘z fikrini ifoda etish, ijtimoiy muammolarni hal qilish va davlatni boshqarishda ishtirok etish imkonini beradi.

Shaxsiy erkinliklar, Har bir fuqaroning shaxsiy erkinliklari va daxlsizligi kafolatlanadi (masalan, xususiy hayotga hurmat, erkin yurish).

Majburiy ishlarga yollash, qamoqqa olish va boshqa shaxsiy erkinlikni cheklovchi holatlar faqat qonun asosida mumkin.

Saylash va saylanish huquqi, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga a’zo bo‘lish huquqi.

Fuqarolarga o‘z fikrini erkin ifoda etish va ommaviy yig‘ilishlar o‘tkazish huquqi kafolatlanadi. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar, Ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash va mehnat huquqlari, adolatli ish sharoitlari. Ijtimoiy himoya, pensiya va nafaqa olish huquqlari. Madaniy va ilmiy huquqlar, O‘z madaniyatini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va ilm-fan sohasidagi faoliyatni amalga oshirish huquqi. Konstitutsiyaviy majburiyatlar, Fuqarolar majburiyatları, Davlatga va jamiyatga nisbatan mas’uliyat.

Soliq to‘lash majburiyati, qonunlarga amal qilish, ijtimoiy tartibni saqlash.

Mulkni himoya qilish, davlat xavfsizligini ta‘minlash. Davlat majburiyatları, Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, ta‘minlash va kafolatlash. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Adolatli sud tizimi, erkin matbuot va boshqa huquqiy institutlarni rivojlantirish.

Huquqlarni himoya qilish, Konstitutsiyaviy huquqlarning amalga oshirilishi jamiyatda barqarorlikni ta‘minlashga yordam beradi.

Biroq, fuqarolarning shaxsiy erkinliklari va huquqlarini amalga oshirish jamiyat manfaatlari bilan muvozanatda bo‘lishi kerak. Har bir fuqaro o‘z huquqlarini amalga oshirayotganida, jamiyatning boshqa a‘zolarining huquqlariga hurmat bilan yondashishi zarur. Davlat fuqarolar huquqlarini cheklovchi vaziyatlarda (masalan, milliy xavfsizlik, jamoat tartibi) qonuniy cheklovlar belgilashi mumkin. [4]

Xulosa

Konstitutsiyaviy huquqlar va majburiyatlar davlat va jamiyatning asosiy yuridik negizini tashkil etadi. Ularning o‘zaro uyg‘un ishlashi fuqarolarning huquqlarini himoya

qilish va davlatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shamdi. Fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari demokratik jamiyatning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi, va bu huquqlardan to'liq foydalanish, shuningdek, fuqarolarning davlatga nisbatan majburiyatlarini bajarish o'zaro uyg'unlikda bo'lishi kerak.

Jamiyatda barqarorlik vaadolatni ta'minlash uchun fuqarolarning huquqlari va majburiyatlar muvozanatli tarzda amalga oshirilishi zarur.

Ayollar va bolalar huquqlarining alohida himoyasi jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida, shuningdek, huquqiy va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prizidentining Farmoni, Toshkent sh 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.02.2023 yildagi PQ-46-son
3. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 02.07.1992 yildagi 636-sonli Qonun
4. <https://president.uz/oz/lists/view/111>